

**BO'LAJAK PEDAGOGLARDA SHAXSIY – KASBIY KOMPETENTLILIGINI SHAKLLANTIRISHNING DIDAKTIK IMKONIYATLARI****Ruzmetova Novval Vaxabdjano**

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti “Maktabgacha va boshlang‘ich ta‘lim metodikasi” kafedrası v.b.professori (DSc).

**Nabiyeva Zuhra Shuhrat qizi**

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti Boshlang‘ich ta‘lim yo‘nalishi 1-bosqich magistri.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19119019>

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada bo‘lajak pedagoglarda shaxsiy-kasbiy kompetentlikni shakllantirish jarayonida didaktik imkoniyatlardan samarali foydalanish masalalari yoritiladi.

Ta‘lim jarayonini kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etish, innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo‘llash hamda talabning shaxsiy rivojlanishini ta‘minlovchi didaktik omillarning o‘rni tahlil qilinadi. Shaxsiy-kasbiy kompetentlik pedagog shaxsining kasbiy bilim, ko‘nikma, malaka, qadriyat va shaxsiy sifatlarining uyg‘unlashuvi sifatida namoyon bo‘ladi.

**Kalit so‘zlar:** shaxsiy-kasbiy kompetentlik, ilmiy faoliyat, didaktik imkoniyatlar, tadqiqot kompetensiyalari, bo‘lajak pedagog, innovatsion ta‘lim.

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются вопросы эффективного использования дидактических возможностей в процессе формирования личностно-профессиональной компетентности у будущих педагогов. Анализируется роль дидактических факторов, обеспечивающих личностное развитие студента, а также организация образовательного процесса на основе компетентностного подхода и применение инновационных педагогических технологий. Личностно-профессиональная компетентность проявляется как гармоничное сочетание профессиональных знаний, умений, навыков, ценностей и личностных качеств педагога.

**Ключевые слова:** личностно-профессиональная компетентность, научная деятельность, дидактические возможности, исследовательские компетенции, будущий педагог, инновационное образование.

**Annotation.** In this article, issues of effective use of didactic opportunities in the process of forming personal-professional competence in future educators are discussed. The organization of the educational process on the basis of a competency-based approach, the application of innovative pedagogical technologies, and the role of didactic factors that ensure the personal development of the student are analyzed. Personal-professional competence is manifested as a harmonious integration of a teacher’s professional knowledge, skills, qualifications, values, and personal qualities.

**Keywords:** personal-professional competence, scientific activity, didactic opportunities, research competencies, future educator, innovative education.

**Kirish:** Har bir xalqning ertangi kuni o‘sib kelayotgan yosh avlodning bugun qanday ta‘lim-tarbiya olayotganiga bevosita bog‘liqdir. Bunday mas‘ulyatli vazifani bajarish hozirgi zamon o‘qituvchisi, ayniqsa, boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining oldida turgan muhim vazifasidir.

Bugungi kun o‘qituvchisi ta‘lim jarayonida ilg‘or pedagogik texnologiyalarni puxta egallagan, ularni tahlil qilish va amaliyotga joriy eta olish lozim.<sup>1</sup>

<sup>1</sup> Mahoratli pedagog jurnal, 2024-yil iyun N-‘6 (78) 5-bet

Ushbu fikr yosh avlod tarbiyasida ta'limning hal qiluvchi o'rin tutishni yaqqol ifodalaydi.

Haqiqatan ham, jamiyatning kelajagi bugungi o'qituvchining mas'uliyati va mahoratiga chambarchas bog'liq. Ayniqsa boshlang'ich sinf o'qituvchisi bolalarning dunyo qarashi, tafakkuri va axloqiy fazilatlarini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. O'qituvchi o'z ustida doimiy ishlasa, ta'lim jarayoni yanada mazmunli va qiziqarli bo'ladi. Natijada, mustaqil fikrlaydigan, barkamol va raqobatbardosh avlod voyaga yetadi.

**Asosiy qism:** Kompetensiya (lotincha "compete" so'zidan olingan bo'lib, "erishaman, muvofiqman, mos kelaman" ma'nolarini bildiradi) – kishi egallagan muayyan bilim, ko'nikma, malakalar majmuasini bildirdi. Kompetensiya tushunchasi 1960-yillarning boshlaridan keng qo'llanila boshladi. Shaxsiy-kasbiy kompetentlik – bu pedagogning kasbiy faoliyatni samarali amalga oshirish uchun zarur bo'lgan bilimlar majmuasi, amaliy ko'nikma va malakalar, shaxsiy fazilatlar, kasbiy qadriyatlar birlashmasidir.

Zamonaviy ta'lim tizimi pedagog shaxsiga nisbatan an'anaviy yondashuvdan voz kechib, uni kasbiy faoliyat subyekti sifatida rivojlantirishni talab etmoqda. Bugungi kunda pedagog faqat bilim uzatuvchi emas, balki ta'lim jarayonini loyihalovchi, innovatsion faoliyatni amalga oshiruvchi va o'quvchining shaxsiy rivojlanishiga yo'naltirilgan mutaxassis sifatida qaralmoqda.

Shu nuqtayi nazardan, bo'lajak pedagoglarda shaxsiy-kasbiy kompetentlikni shakllantirish muammosi ta'lim nazariyasi va amaliyotida dolzarb ilmiy-pedagogik masalaga aylanib kelmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qabul qilingan farmon va qarorlarda pedagog kadrlarning kasbiy salohiyatini oshirish, innovatsion yondashuvlar asosida tayyorlash masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tomonidan davlat va nodavlat oliy ta'lim tashkilotlarida pedagog kadrlar tayyorlash sifatini tahlil qilish maqsadida talabalarning bilimlarini tashqi diagnostika qilish tizimi joriy etiladi. Bunda diagnostika natijalariga ko'ra pedagog kadrlar tayyorlash sifati belgilangan talablarga javob bermaydigan ta'lim yo'nalishlarida kadrlar tayyorlashni cheklash tartibi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.<sup>2</sup> Xususan, hujjatlarda bo'lajak pedagoglarni tayyorlash jarayonida ta'lim mazmunini yangilash, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish hamda kasbiy kompetentlikni shakllantirishga alohida urg'u beriladi. Bo'lajak pedagog-o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini yanada takomillashtirish bu yo'nalishga nisbatan yangi innovatsion yondashuvlarni, zamonaviy ta'lim paradigmalarini tatbiq etishi lozim.

Ta'limda innovatsion yondashuvlarni joriy etish davlat ta'lim standartlarida keltirilgan tayanch va umumfan kompetensiyalarni shakllantirish, o'quv-biluv jarayonini samarali tashkil etishning yangi texnologiyalari va shakllaridan foydalanishni talab etadi.

Hozirgi zamon pedagogikasida didaktikaga ta'lim va ma'rifat berish nazariyasi bilan shug'ullanadigan alohida soha sifatida qaraladi. Ta'lim mazmunini aniqlash, ta'lim jarayoni qonuniyatlarini ochish hamda o'qitishning eng samarador usul va yo'llarini topish didaktikaning asosiy muammosidir.

Maqolada ko'tarilgan bo'lajak pedagoglarda shaxsiy-kasbiy kompetentlikni shakllantirish masalasini men bugungi ta'lim tizimining eng dolzarb muammolaridan biri deb hisoblayman.

Mening fikrimcha, ushbu muammoning asosiy sababi pedagog kadrlar tayyorlash jarayonida nazariy bilimlarga ko'proq urg'u berilib, amaliy va reflektiv faoliyatning yetarli

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni 29.04.2025-yil PF-73-son "Pedagog kadrlar tayyorlash tizimini yanda takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"

darajada integratsiyalashmaganidir Ya'ni, talaba ko'pincha kompetensiyani nazariy tushuncha sifatida egallaydi, ammo uni real pedagogik vaziyatlarda samarali qo'llash ko'nikmasi to'liq shakllanmaydi. Men shuni ta'kidlamoqchimanki, shaxsiy-kasbiy kompetentlikni shakllantirishda didaktik imkoniyatlardan foydalanish faqat innovatsion texnologiyalarni qo'llash bilangina cheklanmasligi kerak. Bu jarayon tizimli va chuqur yondashuvni talab etadi. Men ta'lim mazmunini kompetensiyaviy yondashuv asosida qayta ko'rib chiqish zarur, deb hisoblayman.

Fan dasturlari bo'lajak pedagogning mustaqil fikrlashi, muammoli vaziyatlarni hal etishi va pedagogik qaror qabul qila olish qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qilishi kerak. Didaktik jarayonda refleksiya va o'z-o'zini baholash mexanizmlarini kuchaytirish muhim, deb bilaman.

Chunki shaxsiy rivojlanish ichki tahlil, o'z ustida ishlash va kasbiy o'sishga intilish orqali shakllanadi.

Agar talaba o'z faoliyatini tanqidiy baholay olmasa, haqiqiy kompetentlik yuzaga kelmaydi. Pedagogik amaliyotni mazmunan boyitish va uni yanada faol shaklga keltirish lozim.

Amaliyot jarayoni oddiy kuzatuv bilan cheklanmasdan, loyiha asosida ishlash, real muammolarni hal qilish va innovatsion metodlarni sinab ko'rish kerak. Men davlat darajasida pedagog kadrlar tayyorlashga qaratilayotgan islohotlarni ijobiy baholayman. Biroq normativ-huquqiy asoslarning mavjudligi o'z-o'zidan sifatli natija bermaydi. Asosiy e'tibor didaktik jarayonning real samaradorligiga qaratilishi kerak.

**Xulosa:** Bo'lajak pedagoglarda shaxsiy-kasbiy kompetentlikni shakllantirish bugungi ta'lim tizimining ustuvor vazifalaridan biri ekanligini yana bir bor angladim. Didaktik imkoniyatlardan to'g'ri va tizimli foydalanish orqali pedagog kadrlar tayyorlash sifatini sezilarli darajada oshirish mumkin.

Asosiy qismda ta'kidlanganidek, muammoning ildizi nazariya va amaliyot o'rtasidagi uzilishda namoyon bo'ladi. Men ushbu masalani hal etish uchun bir nechta aniq yechimlarni taklif etaman: ta'lim mazmunini kompetensiyaviy yondashuv asosida qayta ko'rib chiqish zarur.

Fan dasturlari faqat bilim berishga emas, balki talabaning muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, mustaqil qaror qabul qilish va pedagogik vaziyatlarda moslashuvchanlik ko'rsatish qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qilishi kerak.

Didaktik jarayonda refleksiya va o'z-o'zini baholash mexanizmlarini kuchaytirish muhim deb hisoblayman. Maxsus refleksiv kundaliklar, amaliy mashg'ulotlardan keyingi tahliliy suhbatlar hamda portfolio tizimi orqali talabaning ichki o'sishi va kasbiy shakllanishi ta'minlanadi.

Pedagogik amaliyotni mazmunan boyitish zarur. Amaliyot jarayoni oddiy kuzatuv emas, balki loyiha asosida ishlash, real muammolarni aniqlash va ularning yechimini ishlab chiqish orqali tashkil etilishi lozim. Bu esa nazariy bilimlarning real ta'lim muhitida sinovdan o'tishini ta'minlaydi.

Shuningdek, PF-5712 va PF-73 kabi normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalar amaliyotda to'laqonli joriy etilgandagina kutilgan natijaga erishish mumkinligini ta'kidlamoqchiman. Men olib borgan tahlillar shuni ko'rsatdiki, didaktik imkoniyatlardan samarali foydalanish orqali bo'lajak pedagoglarda shaxsiy-kasbiy kompetentlikni shakllantirish mumkin va bu jarayon ijobiy natija bermoqda.

Eng muhimi, ta'lim jarayoni shaxsga yo'naltirilgan, innovatsion va refleksiv yondashuv asosida tashkil etilsa, natijada mustaqil fikrlovchi, kasbiy jihatdan yetuk, zamonaviy talablarga javob bera oladigan pedagog kadrlar shakllanadi. Men ushbu tadqiqot natijalari pedagog kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirishga amaliy hissa qo'shishiga ishonaman.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. “Mahoratli pedagog jurnali” 2024-yil iyun N-<sup>o</sup>6 (78) 5-bet
2. PF-73-son 29.04.2025-yil “Pedagog kadrlar tayyorlash tizimini yanda takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni 29.04.2019-yil PF-5712-son 1-ilova (1-bob umumiy qoidalar)
4. Taykalova Dilnoza Norbekovna 05.05.2025 maqola 87bet. 82-bet
5. Mahoratli pedagog jurnal, 2024-yil iyun N-<sup>o</sup>6 (78) 5-bet
6. R.A.Mavlonova, N.H.Rahmonqulova, K.O.Matbazarova, M.K.Shirinov, S.Hafizov. Umumiy pedagogika “Fan va texnologiya” nashriyoti, 2018. Umumiy pedagogika I bo‘lim I bob. Pedagogikaning ilmiy asoslari. Pedagogik fan sifatida uning predmeti, maqsad va vazifalari. 6. Pedagogika fanining metodologiyasi 530 bet, 12-bet
7. “Pedagogik Mahorat” Ilmiy-nazariy va metodik jurnal. 4-son (2024-yil, aprel) ISSN:2181-6833, 200 bet, 21-bet.
8. Mutalipova M.J. “Xalq Peedagogikasi”,2015
9. Saidahmedov N.J. “Ilmiy tadqiqot metodologiyasi”, 2010
10. K.A.Abrorxonova, J.M.Otajonov, N.R.Toshxo‘jayeva, O.O.Kasimova. Pedagogik kompetentlik darslik. 2023. 159 bet, 9-16 betlar.